



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 452 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	10
<i>Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	15
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari	21
<i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati	25
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni	28
<i>O'rinova Nilufar Muxammadovna</i>	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi	32
<i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i>	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari	37
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	41
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	44
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ihombek o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida)	47
<i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i>	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities	51
<i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i>	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi	55
<i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	59
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов)	63
<i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i>	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students	67
<i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i>	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	70
<i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
<i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i>	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari	78
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari	83
<i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari	86
<i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i>	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati	91
<i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i>	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ	95
Мансурова Гульмира Рафазловна	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики	101
Рауфова Озода	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari	105
Choriyeva Dildora Ismat qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida	109
Tangriyev Abdulkarim Tovashevich	
O'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	114
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida STEAM ta'limi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish	120
Kozimova Mehriniso Akbarali qizi	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	125
O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi	129
Sharipov Nodir Botir o'g'li	
Management of Medical Emergencies in Outpatient Dental Clinics.....	133
Adurazzoqov Kamoliddin, Umarov Maruf, Buzrukhoda Javohir	
Psixologik farovonlikning asosiy komponentlari, ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy baholash usullari	138
Aliyev Samariddin Murotali o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	142
Boymurodova Sadoqat Istam qizi	
O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.....	146
Gadoymurodova Kamola Sunnatulloevna	
Oilada bola tarbiyasining ahamiyati va uning shaxs kamolotiga ta'siri	151
Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Oilimova Mushtariy Xaydarali qizi	
Art-pedagogika vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati	154
Gulboyev Akbar Tuxtyayevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tadbirlar orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish	158
Homidov Husniddin Kupaysinovich, Yusupova Gulzor Yunusjon qizi, Norbekova Sevinch Musurmon qizi	
Bone-Grafting Materials in Oral Surgery: Classification, Biological Properties, and Clinical Application	161
Jumaqulova Mashhura Alishevovna, Buzrukhoda Javohir Davronovich	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik	166
Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi	
Using STEM Technologies to Foster Rational Thinking in the Dentistry	169
Khonimqulov Javlon, Burkhonova Zarafuz	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini montessori metodikasi vositasida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish usullari modeli.....	173
Mahbuba Yusupova Rustam qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni integrativ yondashuv asosida shakllantirish metodikasining samaradorligi.....	177
Nasimova N. Q.	
Analysis of Scanning Techniques Used in Orthodontic Dentistry	182
Nasrullayev Javlonbek Ta'atonovich, Rahimberdiyev Rustam Abdunosirovich	
Zamonaviylik - ta'lim konsepsiyasida asosiy mezon sifatida	187
Ochilova Gulnoza Odilovna	

O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi	191
Qahhorova Sojida Bahodir qizi, Zokirov Javoxir G'aybullo o'g'li	
Diqqat va xotira jarayonlarida raqamli texnologiyalarning roli	196
Salomova Nargiza Sattorovna	
Talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning empirik tahlili.....	200
Shukurova Nargiza Ikramovna	
Gimnastikachi qizlarda egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirish jarayonida shikastlanishlarning oldini olish	205
Sultanova Musharafxon Xudoyqul qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish...	210
Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari	216
Uralova Nurxon Maxadovna	
Naqshbandiya qadriyatlarini bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni.....	220
Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari	223
Xo'jamberdiyeva Maftuna Norqobilovna, Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi	
Developing Logical Thinking via the Use of STEM Technology	226
Yarmuhammedov Nabijon Navruzovich, Burkhonova Zarafuz	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati	229
Yo'ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi, Jumayev Abdilxakim Turdiyevich	
Значение предмета физического воспитания и спортивной метрологии в физическом воспитании молодежи	233
Маматкулов Равшанжон Солижонович	
Аксиологические аспекты диалога культур в романе Сухбата Афлатуни "Рай Земной"	237
Чернова Татьяна Алексеевна, Худойназаров Сардорбек	
Maktab boshqaruvida ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	240
Akbutayeva Gulasal Uzoq qizi	
Features of Verbal and Non-Verbal Communication in Teaching Foreign Languages in Higher Education Institutions	248
Gulnoza Aslamovna Azimkulova	
Chaenomeles Japonica (Thunb.) Lindl. Ex Spach mevalaridan ajratib olingan polifenol va pektin komplekslarining ichak mikrobiotasi, oksidlovchi stress va immun javobga ta'sirini molekulyar-biologik usullar asosida tadqiq etish	251
Ergasheva Nigora G'ayratovna	
Contemporary Linguodidactic Trends in Teaching English in Higher Education	259
Khudoyarova Ziyoda Maratovna	
Yuqori sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning muammo va imkoniyatlari.....	264
Layloxon Xabibullayeva Tursunali qizi	
Raqamli sport pedagogikasi va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari.....	269
Matvapayev Azizbek Gaibnazar o'g'li	
Sun'iy intellektga qaramlik: raqamli addiksiya evolyutsiyasining yangi bosqichi	273
Mo'minxo'jayeva Zuhra Alimjon qizi	
Linguo-Cognitive Modeling of The Relationship Between Life and Death In Literary Texts: a Comparative Analysis (Based on 20 th -Century English and Karakalpak Works).....	279
Najimova Perizad Arslanbay qizi	
Talabalar intellektual qobiliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	283
Shodiyeva Charos Ravshan qizi	
Ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashga qaratilgan mashg'ulotlarining asosiy bosqichlari	286
Xaytova Farida Kuchkarovna	



Raqamli va an'anaviy o'qish: qiyosiy tahlil.....	292
<i>Mashrapova Sevara Xabibovna</i>	
Mustahkam oila qadriyatlari va ularning zamonaviy jamiyat rivojiga ta'siri.....	296
<i>Soyibova Bonu O'tkir qizi</i>	
Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik mohiyati	301
<i>Xoliqov Farxod Karomatillo o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar: sun'iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish metodikasi...	305
<i>Aminov Shavkatjon Sobir o'g'li, Abdusattarova Muhlisaxon Foziljon qizi, Berdiyaroova Jasmena Sherzodjon qizi</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochilarda koordinatsion qobiliyatlarni shakllantirishning samarali vositalari	311
<i>Jumanova Iroda Shokirjon qizi</i>	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.....	315
<i>Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi</i>	
Xorijiy tillarda yozma ish turlarini o'rganishning o'ziga xos jihatlari	319
<i>Omonova Sarvinov</i>	
Can Duolingo Reduce Speaking Anxiety: A Literature-Based Analysis	322
<i>Qodirqulova Ra'no</i>	
Kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini takomillashtirish	326
<i>Sa'dullayeva Shahzoda Nuriddin qizi</i>	
Zamonaviy psixologning kasbiy kompetensiyasi: krizisli vaziyatlarda ishlash texnologiyalari.....	330
<i>Shirinov Otobek Tualovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari	333
<i>Uralova Nurxon Maxadovna</i>	
Иммерсивные технологии в обучении русскому языку как иностранному: современные подходы и перспективы	337
<i>Абдусаламова Адиба Каримджановна</i>	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов филологического направления русскому языку в сопоставлении с узбекским языком	340
<i>Касимов А. Б.</i>	
Basketbolchilarning jamoaviy texnik harakatlarini takomillashtirish.....	344
<i>Mirzayev Xusniddin Abdusattor o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda zamonaviy o'qitish usullari.....	348
<i>Alimjanova Matlyuba Yunusovna</i>	
Socio-Psychological Mechanisms of Child Protection From Violence: International Experience and the Practice of Uzbekistan.....	351
<i>Ganiev Maksudjon Najim ugli</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	357
<i>Gafforova Sarvinov Asrorovna</i>	
Chap qo'li yetakchi o'quvchilarni o'qitishda neyropedagogik yondashuvning pedagogik mohiyati va asosiy tushunchalari	361
<i>Rashidov Abduaziz Abduvali o'g'li</i>	
XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadidchilik harakatining Qashqadaryoga kirib kelishi va uning ta'lim tizimiga oid tarixiy-pedagogik ildizlari	369
<i>Sulaymonova Nilufar O'tkir qizi</i>	
Снижение коммуникативной тревожности студентов-филологов средствами театральных упражнений в обучении немецкому языку	372
<i>Галиуллов Марат Анварович</i>	
Педагогические условия совершенствования дидактических моделей обучения студентов в цифровой образовательной среде	376
<i>Рахматова Нигина Исломовна</i>	

O'smirlarda internet tobeligi namoyon bo'lishining shaxs xususiyatlariga ta'siri.....	380
Djuxonova Noxida Xayotjonovna	
Tarix darslarida "Educaplay" interaktiv o'yinlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari.....	384
Eshankulova Ma'mura Davlatovna	
Yangi O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy faolligini ta'minlash: falsafiy tahlil va milliy dastur istiqbollari	388
Jurayeva Mushtariy Muxaydinovna	
"Neyropsycore / Bo'g'irsoq" kompyuterlashtirilgan dasturi asosida 6-9 yoshli bolalarda eshituv-so'z-mantiqiy xotirani rivojlantirish samaradorligi.....	392
Mirzajonova Eleonora Topvoldiyevna	
Texnika oliy ta'limida o'qitishning metodologiyasi: zamonaviy yondashuvlar va samarali pedagogik texnologiyalar	395
Numonjonov Shoxzodbek Dilshodjon o'g'li	
Raqamli ta'limda fizika o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli	401
Sh. A. Saidova, J. J. Kamolov	
Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining yozuv kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni.....	410
Jo'rayeva Zuhra Kamoliddin qizi	
Integrativ o'qitish samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari mazmuni.....	414
Kamolova U. Mirzayeva	
Oliy ta'lim tizimida dasturiy-konseptual modellashtirishning epistemologik va metodologik asoslari	419
Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o'g'li	
Imom G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarashlarini zamonaviy pedagogikaga joriy etish shart-sharoitlari.....	423
Nabiyeva Aziza Komil qizi	
Parsial o'quv dasturlarining pedagogik mazmuni, tuzilishi va boshlang'ich ta'lim metodikasidagi nazariy asoslari	429
Saydillayeva Mehrnaz Bahodir qizi	
FabLab va MakerSpace texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnik ijodkorlikni shakllantirish metodikasi	434
Xudaykulova Saida Zakirovna	
The Role of Qualified Teachers in Students' Career Choices.....	441
Karimov Dostonjon Karimovich	
Oliy ta'lim muassasalarida zoologiya fanini mediatexnologiyalardan foydalanib o'qitish shart-sharoitlari	446
Kalandarova Dilnoza Samandarovna	

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA ZOOLOGIYA FANINI MEDIATEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB O'QITISH SHART- SHAROITLARI

Kalandarova Dilnoza Samandarovna

Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida zoologiya fanini mediateknologiyalar asosida o'qitishning pedagogik va metodik asoslari tahlil qilingan. Ta'lim jarayonida multimedia vositalari, interaktiv platformalar, elektron ta'lim resurslari hamda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, mediateknologiyalar yordamida talabalarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, tadqiqotchilik faoliyati va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Zoologiya fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlarning afzalliklari hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: zoologiya, mediateknologiyalar, oliy ta'lim, multimedia vositalari, interaktiv ta'lim, raqamli texnologiyalar, elektron ta'lim resurslari, pedagogik texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, innovatsion yondashuv.

Abstract: This article analyzes the pedagogical and methodological foundations of teaching zoology in higher education institutions through media technologies. The effectiveness of using multimedia tools, interactive platforms, electronic educational resources, and modern digital technologies in the educational process is highlighted. Furthermore, the study substantiates the opportunities provided by media technologies for developing students' independent thinking, creative approach, research activities, and practical skills. The advantages of innovative approaches in zoology education and their significance in improving the quality and effectiveness of the learning process are also discussed.

Key words: zoology, media technologies, higher education, multimedia tools, interactive learning, digital technologies, electronic educational resources, pedagogical technologies, educational effectiveness, innovative approach.

Аннотация: В данной статье проанализированы педагогические и методические основы преподавания зоологии в высших образовательных учреждениях на основе медиатехнологий. Освещена эффективность использования мультимедийных средств, интерактивных платформ, электронных образовательных ресурсов и современных цифровых технологий в образовательном процессе. Кроме того, научно обоснованы возможности развития самостоятельного мышления, творческого подхода, исследовательской деятельности и практических навыков студентов посредством медиатехнологий. Показаны преимущества инновационных подходов в преподавании зоологии и их значение для повышения качества и эффективности образования.

Ключевые слова: зоология, медиатехнологии, высшее образование, мультимедийные средства, интерактивное обучение, цифровые технологии, электронные образовательные ресурсы, педагогические технологии, эффективность обучения, инновационный подход.

KIRISH

Didaktika pedagogika fanining muhim tarkibiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u ta'lim jarayonining ilmiy asoslarini, ya'ni o'qitishning maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari, shakllari va uslublari, shuningdek, talaba hamda o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tamoyillarini belgilab beradi. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida zoologiya fanini samarali o'qitishda didaktik tamoyillar va qonuniyatlarning chuqur o'rganilishi hamda amaliyotga tatbiq etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Zoologiya fanini o'qitish jarayoni nafaqat biologik xilma-xillik, hayvonot dunyosining tuzilishi, hayotiy faoliyati va ekologik aloqalari haqidagi ilmiy bilimlarni o'zlashtirish, balki talabalar tafakkurini shakllantirish, ularning kuzatuvchanligi va ilmiy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan murakkab, ko'p bosqichli tizimdir. Bunday o'qitish tizimi bir nechta muhim komponentlarni o'z ichiga oladi: nazariy bilimlar, amaliy mashg'ulotlar, qayta topshirishlar, dala amaliyotlari va mustaqil tadqiqot ishlari.



Shu sababli zoologiyani o'qitish jarayonini takomillashtirish faqat bitta yo'nalishda emas, balki turli bosqich va omillarni qamrab oluvchi kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda mediatexnologiyalar, interaktiv metodlar, virtual laboratoriyalar, vizual modellar va zamonaviy diagnostik vositalardan foydalanish orqali talabalarning faolligi hamda mustaqil fikrlash salohiyati ortadi.

O'quv jarayonining samaradorligi, avvalo, uning tarkibiy qismlaridagi o'zgarishlar hamda bu qismlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va ta'sirning sifatli uyg'unlashuviga bog'liqdir. Ta'lim tizimining har bir elementi - mazmun, metod, vosita, shakl va o'qituvchi-talaba munosabatlari - o'zgaruvchan bo'lib, ularning uzviy uyg'unligi orqaligina yuqori natijalarga erishish mumkin. Zoologiya fanida, ayniqsa, hayvonot olamining murakkab tuzilishi va xilma-xilligi bilan bog'liq bilimlarni o'zlashtirishda bunday didaktik yondashuvlar muhim o'rin tutadi.

Didaktika umumiy pedagogika fanining ajralmas qismi sifatida o'quv jarayonining nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqadi, ta'limning mazmunini belgilaydi, uning metodlarini asoslaydi hamda ularni zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga moslashtiradi. Zoologiyani o'qitishda ham ushbu yondashuvlar fanlarning uzluksiz yangilanib borayotgan ilmiy yutuqlari asosida takomillashtirilib boriladi.

Ta'lim metodlari esa o'quv materialining mazmuni, talabalarning bilim saviyasi, individual o'zlashtirish qobiliyatlari va fanning o'ziga xos xususiyatlariga qarab tanlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim muassasalarida zoologiya fanini mediatexnologiyalar asosida o'qitish bugungi kunda pedagogika va biologiya ta'limining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia vositalari va elektron ta'lim resurslaridan foydalanish talabalarning bilim olish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan mediatexnologiyalarning ta'limdagi o'rni keng yoritilgan. Xususan, UNESCOning "ICT Competency Framework for Teachers" konsepsiyasida raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantiruvchi muhim omil sifatida talqin etiladi. Mazkur yondashuvda texnologiyalar nafaqat axborot uzatish vositasi, balki ta'lim samaradorligini oshiruvchi pedagogik muhit sifatida ham qaraladi.

Shuningdek, R. Mayerning multimedia ta'lim nazariyasida matn, audio, animatsiya va videomateriallarning uyg'un qo'llanilishi bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam berishi asoslab berilgan. Mishra va Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeli esa texnologiya, pedagogika va fan mazmunining integratsiyasini ta'lim sifatini oshiruvchi asosiy omil sifatida izohlaydi.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda biologiya va zoologiya fanlarini o'qitishda mediatexnologiyalardan foydalanishning metodik imkoniyatlari keng yoritilgan. Tadqiqotlarda virtual laboratoriyalar, elektron darsliklar, interaktiv platformalar va multimedia vositalari o'quvchilarning mustaqil fikrlashi hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida ham pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va raqamli ta'lim masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, N. Saidahmedov, U. Tolipov va boshqa pedagog olimlarning tadqiqotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil etishning nazariy hamda metodik asoslari ishlab chiqilgan. Ularning ilmiy qarashlarida multimedia vositalari, elektron ta'lim resurslari va interaktiv metodlarning o'quv jarayonidagi samaradorligi yoritilgan.

So'nggi yillarda zoologiya fanini o'qitishda animatsiyalar, videodarslar, virtual modellar va elektron platformalardan foydalanish talabalarning mavzularni vizual idrok etishini kuchaytirishi, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishi hamda ta'lim jarayoniga qiziqishini oshirishi ilmiy jihatdan asoslanmoqda. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar tahlili zoologiya fanini mediatexnologiyalar asosida o'qitishning yaxlit metodik tizimini takomillashtirish hamda innovatsion ta'lim vositalarini amaliyotga keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zoologiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan asosiy ta'lim metodlari

№	Ta'lim metodi nomi	Qo'llanish yo'nalishi	Ta'limiy samarasi
1	O'qituvchining og'zaki bayoni	Zoologik tushunchalar va nazariy bilimlarni tizimli bayon etish	Tizimli va mantiqiy bilimlar shakllanadi
2	Kuzatuvga asoslangan ko'rgazmali metodlar	Hayvonlar tuzilishi, morfologiyasi va anatomiyasini o'rganish	Vizual idrok va kuzatuvchanlik rivojlanadi
3	Amaliy va laboratoriya ishlari	Organlar tizimi, fiziologik jarayonlar va biologik obyektlarni o'rganish	Amaliy ko'nikma va tajriba o'tkazish malakasi shakllanadi
4	Modellashtirish va muammoli ta'lim metodlari	Murakkab biologik jarayonlar va tizimlarni tahlil qilish	Analitik va tanqidiy fikrlash rivojlanadi

5	Evristik va ilmiy-tadqiqot yondashuvlari	Mustaqil izlanish, ilmiy xulosalar chiqarish	Mustaqil ilmiy fikrlash va tadqiqotchilik qobiliyati shakllanadi
6	Induktiv va deduktiv metodlar	Biologik hodisalarni umumlashtirish va nazariy xulosalash	Mantiqiy fikrlash va umumlashtirish malakasi rivojlanadi

Bu metodlarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri - ularning nafaqat nazariy bilimlarni yetkazish, balki talabalarda amaliy ko'nikma va tahliliy tafakkurni shakllantirishga ham xizmat qilishi lozimligidir. Metodlarning ilmiy asoslanganligi esa zoologiyaga oid fakt va hodisalarni tushinishda asosiy kafolat hisoblanadi.

Zoologiyani o'qitishda o'quv materialining tasviriy va intuitiv taqdimoti, ya'ni didaktik vositalar - sxemalar, videoroliklar, mikroskopik suratlar, 3D modellar va animatsiyalar orqali berilishi ham muhim pedagogik talablardan biri hisoblanadi.

Shu bois, o'qituvchi tomonidan berilayotgan ilmiy-nazariy tushunchalar talaba ongida samarali aks etishi uchun mediata'lim vositalaridan maqsadli foydalanish zarur. Bu borada yaratilgan elektron darsliklar, mobil ilovalar, virtual laboratoriyalar hamda interaktiv topshiriqlar o'quv jarayonini jonlantiradi va talabalarda zoologik tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Didaktik nuqtai nazardan qaralganda, zamonaviy zoologiyani o'qitish nazariya va amaliyot uyg'unligi asosida metodik, didaktik va psixologik yondashuvlar sintezi orqali tashkil etilishi lozim. Aynan shunday integratsiyalashgan yondashuvlar orqali zoologiya fanini o'rganish samaradorligi oshiriladi.

Ta'lim metodlari oldiga asosan quyidagi talablar qo'yiladi:

- O'quv materialini o'rganish faqatgina nazariy bilimlarni o'zlashtirishga emas, balki ta'limning amaliy imkoniyatlarini ishga solishga ham yordam berishi kerak.
- Ta'lim metodlari ilmiy dalillar bilan aniq asoslangan bo'lishi lozim. Metodning ilmiyligi talabalarning aniq fikr yuritishini, zoologik materiallarni o'zlashtirish jarayonidagi ta'limiy maqsadlarni, vositalarni va usullarni asoslaydi.
- Zoologiya fani o'quv materialini o'rganish jarayonida qo'llaniladigan har qanday ta'lim metodlarining tizimlilikligi ularning samaradorlik darajasini belgilaydi.
- Ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan yana bir talab ularning tushunarli bo'lishidir. O'qitish yo'li talabalarga tushunarli va maqbul bo'lishi, zoologiya o'quv materialini o'rganish metodlari esa uning mazmuni hamda o'zlashtirish xususiyatlariga muvofiq kelishi lozim.
- Talabalarning bilish jarayonini faollashtirish maqsadida o'quv jarayonida ko'rsatmali texnologiyalardan kengroq foydalanish zarurligi ta'lim metodlari oldiga qo'yilgan muhim talabdir. Ta'limni ongli va faol shaklda olib borish bilimlarni o'zlashtirish usullariga ham bog'liqdir.
- O'qituvchining ilmiy-nazariy bilimlarni tushuntirishi talabalarning o'zlashtirishida samarali natija berishi kerak. Yuqorida bayon etilgan didaktik fikrlarga tayangan holda, ta'lim nazariyasi zoologiya fanini o'qitishda metodik omillar, didaktik omillar va psixologik omillarga asoslanishi lozim.

Bularning barchasi mediatexnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim muhitida ijobiy hal etilishi mumkin.

Zoologiya fanini mediatexnologiyalar asosida o'qitishning shart-sharoitlari va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri

Omillar	Asosiy mazmuni	Ta'lim jarayoniga ta'siri (natija)
Didaktik shart-sharoitlar	Ta'lim maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining ilmiy asoslanganligi	Zoologik bilimlar tizimli va izchil o'zlashtiriladi
	Nazariya va amaliyot uyg'unligi	Talabalarda ilmiy-tahliliy tafakkur rivojlanadi
	Laboratoriya va dala amaliyotlarining integratsiyasi	Amaliy ko'nikmalar shakllanadi
Metodik shart-sharoitlar	Og'zaki, ko'rgazmali, amaliy va muammoli ta'lim metodlarining uyg'unligi	O'qitish samaradorligi oshadi
	Virtual laboratoriyalar, modellashtirish va interaktiv topshiriqlardan foydalanish	Murakkab biologik jarayonlar tushunarli bo'ladi
	Elektron darsliklar, atlaslar, videomateriallardan foydalanish	O'quv jarayoni jonlanadi



Psixologik shart-sharoitlar	Talabalarning bilishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirish	Faol o'quv muhiti shakllanadi
	Mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish	Ongli va tanqidiy fikrlash qaror topadi
	Mediamanipulyatsiyaga qarshi barqarorlik	Raqamli xavfsizlik ta'minlanadi
Texnologik shart-sharoitlar	Raqamli platformalar va mediata'lim resurslari	Ta'lim sifati oshadi
	Vizual modellar, animatsiyalar, 3D texnologiyalar	Zoologik jarayonlar chuqur idrok etiladi
Yakuniy natija	Mediatexnologiyalar asosida o'qitish	Zoologiya fanining ilmiy-metodik ta'minoti takomillashtiriladi

Talabalarga zoologiya fanini mediatexnologiyalar asosida o'qitishning ilmiy-metodik ta'minoti yuqoridagi omillar asosida takomillashtiriladi. Hozirgi vaqtda barcha rivojlangan davlatlarda ta'lim texnologiyalarining umumiy tasnifida didaktik mediatexnologiyalarning o'rniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ular turli metodlar bilan ajralib turadigan texnologiyalar guruhlaridan tashkil topgan. Talabalarga zoologiya fanini o'qitishda mediatexnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirishda quyidagi ta'lim jarayonlariga e'tibor qaratiladi:

- masofa jihatidan (darslik texnologiyasi, loyihalar metodi, masofaviy ta'lim, harakatlar);
- o'zaro munosabatlarda, ya'ni o'qituvchi va talabalar aloqasida (fan-mavzu, fan-fan, fan-matn-mavzu o'zaro ta'siri);
- talabalarning bilim olish faoliyatida (reproduktiv, samarali, ijodiy);
- talabalarning his-tuyg'ularini shakllantirish qobiliyatiga asoslangan texnologiyalarda (muloqot, hissiy muhitning paydo bo'lishi, imitatsion o'yinlar, hissiy va psixologik nuqtai nazar, o'qituvchining yashirin va ochiq holatlari).

“Matn”ga video, kino, noutbuklar va boshqa kompyuter texnikasi vositalari orqali faoliyat ko'rsatuvchi “fan-matn-mavzu” texnologiyasining aloqasi sifatida e'tibor qaratish lozim.

Didaktik mediatexnologiyalar alohida guruhda jamlangan bo'lib, ular axborotni kodlash parametri bilan ajratiladi. Ushbu guruhda mediatexnologiya sifatida tavsiflanmaydigan verbal turdagi texnologiyalar (yozma tushuntirish, izohlash, suhbatlashish, kitob bilan ishlash) ham mavjud.

Mediata'lim va masofaviy ta'limning eng asosiy kamchiliklaridan biri verbal muloqotning kamligi, o'quvchi-o'qituvchi-o'quvchilar munosabatlarida his-hayajonning yetarli darajada namoyon bo'lmashidir. Bu holat talabalarda ijodkorlikning susayishiga olib kelishi mumkin. Mediatexnologiyalar xususiyatiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi: audiovizual texnologiyalar (magnitofon, kino, televizor, video uskunalar); multimedia texnologiyalari (kompyuter, videokamera, proyektor, dinamiklar va multimedia vositalari); gipermatnli texnologiyalar (internet saytlari, elektron darsliklar, elektron kutubxonalaridagi ko'rsatkichli va izohli lug'atlar, ensiklopediyalar); xolografik texnologiyalar (hajmli va chuqur aks ettiruvchi, qayta tiklanuvchi kelajak texnologiyalari). Mediatexnologiyalarning ushbu guruhi murakkab usulda boshqa ko'plab texnologiyalar guruhlariga ham kirib boradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Demak, talabalarning mediatexnologik malakasini oshirish ta'lim tushunchalarining yangi qirralarini, ya'ni o'qish va o'qitish jarayonida voqealarning yangi ko'rinishlari hamda qo'shimcha materiallarni yuzaga keltiradi. O'qish asosan mustaqil ta'lim bilan bog'liq, chunki mustaqil ta'lim jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanish uchun ko'proq imkoniyatlar va erkinlik mavjud.

Noodatiy mediatexnologik ta'lim ko'proq ijodiy natijalar beradi. Ta'lim jarayonida didaktik mediatexnologiyalardan foydalanish bo'yicha tajribalarni tashkil etishda hisobga olingan ushbu holat zamonaviy mediatexnologik ta'limning eng muhim yo'nalishi - biologik va texnik madaniyatlarning zamonaviy tendensiyalari doirasida amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

Sohaga oid manbalar tahlili va shakllantirilgan ilmiy xulosalar talabalarga zoologiya fanini mediatexnologiyalar asosida o'qitishning ilmiy-metodikasini ta'minlovchi didaktik majmualar xususiyatlarini quyidagicha belgilashga asos bo'ladi:

- o'quv jarayonining optimal variantini kafolatlovchi innovatsion dasturiy majmualar;
- multimedia - zoologiya fanini dasturiy ta'minot va texnik bazalar yordamida audio, video, matn, grafika hamda animatsiya vositalari asosida o'qitish majmuasi.

Ta'lim jarayonida mediatexnologiyalar asosida innovatsion dasturiy-didaktik majmualarni qo'llash quyidagi afzalliklarga ega:

1. Innovatsion dasturiy o'qitish barcha kurslarda zoologiya fanidan o'quv mashg'ulotlarida kompyuterlashtirilgan texnologiyalarni qo'llash uchun qulay sharoit yaratadi.
2. Innovatsion dasturiy o'qitish majmuasi yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishni o'rgatadi va mustaqil ravishda bilim egallash ehtiyojini kuchaytiradi.
3. Zoologiya fanini o'qitishning ijodiy muhiti yaratiladi.
4. Mediatexnologiyalar asosida talaba sifatli o'quv materiallari bilan ta'minlanadi.
5. Zoologiya fani bo'yicha ilm-fan, texnika va texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalarida zoologiya fanini mediatexnologiyalar asosida o'qitish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar, elektron darsliklar, interaktiv platformalar hamda raqamli texnologiyalar zoologik bilimlarni talabalarga tushunarli, vizual va tizimli tarzda yetkazish imkonini beradi. Natijada talabalar nafaqat nazariy bilimlarni puxta egallaydilar, balki mustaqil fikrlash, ilmiy-tadqiqotchilik, kuzatuvchanlik va amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mediatexnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida didaktik, metodik, psixologik va texnologik shart-sharoitlarning uyg'unligi zoologiya fanini o'qitish sifatini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, animatsiyalar, 3D modellar, videodarslar va virtual tajribalardan foydalanish murakkab biologik jarayonlarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Shuningdek, mediatexnologiyalar talabalarning mediasavodxonligini, axborot bilan ishlash kompetensiyasini va innovatsion tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli zoologiya fanini o'qitishda innovatsion dasturiy-didaktik majmualarni keng joriy etish, elektron ta'lim resurslarini takomillashtirish hamda o'qituvchilarning mediakompetentligini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. - М.: Педагогика, 1995. - 336 с.
2. Mayer R. Multimedia Learning. - Cambridge: Cambridge University Press, 2009. - 490 p.
3. Mishra P., Koehler M. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. - 2006. - Vol. 108. - №6. - P. 1017-1054.
4. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. - Paris: UNESCO Publishing, 2018. - 67 p.
5. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. - М.: Академия, 2010. - 272 с.
6. Саидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар. - Т.: Молия, 2003. - 172 б.
7. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбикий асослари. - Т.: Фан, 2006. - 260 б.
8. Кларин М.В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках. - М.: Педагогика, 1994. - 223 с.
9. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants // On the Horizon. - 2001. - Vol. 9. - №5. - P. 1-6.
10. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - T.: O'zbekiston, 2020. - 45 b.
11. Dewey J. Democracy and Education. - New York: Macmillan, 1916. - 434 p.
12. Bloom B. Taxonomy of Educational Objectives. - New York: Longmans, Green and Co, 1956. - 207 p.
13. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированного образования. - М.: Народное образование, 2016. - 287 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.